ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 10

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Intensivlik va darajalanish munosabati 7

ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм 12

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi 16

MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari 21

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari 29

RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini 32

ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство 46

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Phraseological units with clothing components in english language.....49

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

NADIM MUHAMMAD HUMAYUN
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

ALIYEVA ORZIGUL
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IJTIMOIY MAQOMNING SOTSIOLINGVISTIK TALQINI

Ro'zimatova Dilnoza Murodovna,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Ijtimoiy maqom tushunchasini sotsiolingvistika, lingvistik semantika, pragmalingvistika nuqtayi nazaridan kategoriya sifatida ko'rish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy maqom tushunchasining eng to'liq tavsifi sotsiolingvistikada keltiriladi. Ijtimoiy maqom – bu shaxsning qaysidir ijtimoiy guruhga mansubligi va holatga mos namoyon bo'ladigan huquq va majburiyatlarining ko'rsatkichidir. Shuning uchun ham shaxsning "ijtimoiy maqomi" sotsiolingvistikaning markaziy tushunchalaridan biridir. Maqolada ijtimoiy maqom tushunchasining sotiolingvistil talqini yuzasidan mulohazalar bayon qilinadi.

Ushbu tushuncha psixologik model bilan ham bog'liq bo'lib, unga ko'ra, inson dastlab kimnidir uchratganda, birinchi navbatda, uning yuzi esda qoladi (identifikatsiya darajasi), keyin kasb va nihoyat, ism va qo'shimcha ma'lumotlar. Sotsiologik nuqtayi nazardan esa shaxs ma'lum bir ijtimoiy tabaqa, kasb va boshqalarning vakili sifatida belgilanadi. Insonning ijtimoiy maqomi haqidagi ma'lumotlar jamiyatda ustuvor ahamiyatga ega[1]. I.V. Karasikka ko'ra, ijtimoiy maqom deganda, biz "shaxsning ijtimoiy tizimdagi nisbiy o'rnini, shu jumladan, huquq va majburiyatlarni va natijada o'zaro xatti-harakatlaridan nimalarni kutish kerakligini tushunamiz. Shu bilan birga, shaxsning o'zigagina xos bo'lgan jihatlar keyingi o'ringa o'tadi. V.I.Karasik "Ijtimoiy maqom tili" asarida ushbu tushunchaning ijtimoiy tabaqalanishning ichki omillariga mos keladigan uchta xususiyatini aniqlaydi: insonning xulq-atvori, uning jamiyatdagi ma'lum tabaqalanishdagi o'rni va uning turmush tarzi. Shaxsning ijtimoiy maqomi, birinchi navbatda, uning xulq-atvoriga ta'sir qiladi[2]. Insonning ijtimoiy maqomini bilib, siz unga xos bo'lgan fazilatlarning aksariyatini osongina aniqlashingiz, shuningdek, u amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlarini bashorat qilishingiz mumkin. Insonning xulq-atvoridagi ustuvorliklar muayyan etnik guruh, odamlarning xarakteri bilan belgilanadi va urf-odatlar, madaniy qadriyatlar va xalqning so'zlarida aks etadi. Shaxsning ijtimoiy maqomi muloqot ishtirokchilari orasidagi ijtimoiy masofa sifatida ifodalanadi. Muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, ular orasidagi ijtimoiy masofaning oshishi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Ijtimoiy maqomning masofali ko'rinishi o'z maqomini va suhbatdosh maqomini subyektiv baholashda ham ifodalanadi, inson aslida yuqori lavozimni egallashi, lekin suhbatdoshiga xuddi teng mavqeda turgandek munosabatda bo'lishi mumkin. Bunday holatlarga biz juda ko'p duch kelamiz.

Shuningdek, ijtimoiy maqom tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkinligi haqida aytib o'tgan edik [3], orttirilgan maqom shakllari (jumladan, ma'lumot, kasb, iqtisodiy turmush darajasi) past maqomga ega bo'lgan odamlarning tug'ma holatini baholashni o'zgartirmaydi. (masalan, irqi, millati, yoshi). Bu holatni esa dunyoda boshqa millat vakillarining ayrim irq vakillariga munosabatida ham ko'rishimiz mumkin. Oq va afro-amerikaliklar uchun negr shifokori – qanday malakaga yoki tajribali ega bo'lmasin, u birinchi navbatda negr. Yana Gitlerning yahudiylarga munosabati ham fikrimizni dalillay oladi. Shuningdek, XIX asrgacha bo'lgan davrda insonlarning maqomi ko'pincha o'zgarmas bo'lgan, masalan, yuqori tabaqa vakilari, saroy amaldorlari, qozilar, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, katta yer egalari singari qatlam vakillarining farzandlari ham ko'pincha shu maqomda hayot kechirgan.

Ijtimoiy maqom tushunchasi turli madaniyatlar va tillarda o'ziga xosdir. Bu o'ziga xoslik, xususan, suhbatdoshlar o'rtasidagi maqom tengsizligini aniq yoki yashirin ifodalashda, muloqotning maxsus shakllarida, masalan, rahbar va yig'ilish ishtirokchilari o'rtasidagi suhbatda yaqqol namoyon bo'ladi. "Sotsiolingvistikada ijtimoiy maqom ikki yo'nalishda konsept

[1] Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва, 1992. – С.30.

[2] Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва, 1991. – С. 31.

[3] Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Universitet, 2014. – B.33.

va kategoriya o‘rganiladi. Bir tomondan, u boshqa tushunchalar: rol, qadriyatlar majmuyi, nutq hodisasi, muloqot sohasi va holati hamda uning turlarida til bilan o‘zaro bog‘langan markaziy tushuncha sifatida o‘rganiladi[1]. Boshqa tadqiqotchilar buni kategoriya deb hisoblashadi. Sotsiolingvistikadagi ijtimoiy maqom kategoriyasining o‘zagi nutqiy xulq-atvor va turmush tarzi belgilarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlarning roli, masofasi va me’yoriy xususiyatlaridan iborat. Ijtimoiy maqomni sotsiolingvistika toifasi sifatida tahlil qilishning ikkita rejasi mavjud: ijtimoiy maqomni ko‘rsatish va baholash[2]. Ijtimoiy maqom ko‘rsatkichlari, jumladan, kiyim-kechak, uy-joy va bir guruhga mansub insonlarning odob-axloqi, ijtimoiy stereotiplarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy maqomning namoyishi odamlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita muloqotlarda, masalan, suhbatdoshlar orasidagi masofani saqlashda va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Kommunikativ masofa turi va odamning tabaqalanish holati o‘rtasida bog‘liqlik mavjud: past tabaqalanishga mansub shaxslar ijtimoiy masofada muloqot qilishdan qochishadi, yuqori tabaqalanishga mansub shaxslarda esa bunday holat kuzatilmaydi. Insonning qanday ijtimoiy vaziyatda ekanligi, uning ijtimoiy maqomi qanday ekanligi va shunga mos ravishda unga murojaat qilish uchun maxsus ko‘rsatkichlarni hisobga olish kerak[3]. Bu insonlarning turmush tarzi, muloqoti va nutqining ijtimoiy maqomga xos bo‘lgan jihatlarini aniqlashda yordam beradi. Bundan tashqari, muloqotda og‘zaki bo‘lmagan maqom ko‘rsatkichlari ham ustuvor hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich so‘zlarning talaffuz qilishda, ularni tanlashda, me’yoriy grammatika qoidalariga rioya qilishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini eslab o‘tish joizdir:erkakning nutqi ayolning nutqidan farq qiladi (gender jihati). “Ijtimoiy maqomni ko‘rsatish va baholash odamlarning ma’lum rasmiy xatti-harakati bo‘lgan odob-axloq qoidalarida aks etadi. Odamlarning xulq-atvoridagi ustuvorliklar ularning xarakteri bilan belgilanadi va urf-odatlar, madaniy qadriyatlar lug‘at boyligida o‘z aksini topadi”[4]. “Nemis sotsiolingvistlari (E.Kenig, D.Xoppe) tadqiqotlarida ijtimoiy maqom tushunchasi baholash tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aytib o‘tilgan. Maqom, E.Kenigning fikricha, ijtimoiy hurmat darajasi bilan bog‘liq bo‘linishlarga asoslangan tuzilmadagi shaxsning pozitsiyasidir[5]. Shunday qilib, maqom shunchaki shaxsning ijtimoiy tuzilmadagi mavqeyini anglatmaydi, balki har doim ushbu o‘rinni egallagan ma’lum bir shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan “baho”ni o‘z ichiga oladi.

D.Xoppening fikricha, ijtimoiy maqom bir vaqtning o‘zida kasbiy maqom, iyerarxik va obro‘li maqomdir, chunki maqom tushunchasi nafaqat shaxsning jamiyat hayotiga qo‘shgan hissasini, balki uning u yoki bu maqomiga berilgan baholar yig‘indisini ham o‘z ichiga oladi”[6].

V.I.Karasik shaxsning ijtimoiy maqomi namoyon bo‘lishining ichki xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning uchta sohasiga murojaat qiladi, bular: turmush tarzi, odamlar bilan muloqot va nutq ko‘rsatkichidir[7]. 1. Insonlarning hayot tarzi ularning ijtimoiy maqomini ko‘rsatuvchi yetakchi vositadir**.**

Amerikalik sotsiolog E.Uilson XX asrning 40-yillari oxirlarida AQSHda jamiyatning turli qatlamlarining didi va afzalliklari haqida qiziqarli ma’lumotlarni taqdim etadi hamda ularni to‘rt turga bo‘ladi: yuqori, o‘rta va ikkita oraliq qatlam. Insonning yashash tarzi uning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, hayot tarzi uni o‘rab turgan deyarli barcha obyektlarga, shuningdek, hodisalar, munosabatlar, xatti-harakatlar, boshqalarga taalluqlidir. Sotsiologik nuqtayi nazardan qaralganda, insonning yashash tarzini uning kiyimi, mashinasi, uy-joyi va boshqa shu kabilardan bilish mumkin.

O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, hatto ism ham insonning aslida qaysi qatlamga mansub ekanligini, uning kim ekanligini hamda shunga muvofiq muomala qilish mumkinligini anglatgan. Ismga bo‘lgan huquq ham ijtimoiy maqomning dalili bo‘lishi mumkinligi qadimgi Rimda qullarning ismlari bo‘lmaganligi, qulning ismi faqat sotilgan taqdirda berilgan va egasining ismini *-por* qo‘shimchasi qo‘shilishidan hosil qilinishi tarixdan ma’lum[8]. Xuddi shunday

[1] Быганова А.Е. Прагмалингвистическии аспект категории социального статуса в немецкоязычном тексте: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 19 с.

[2] Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. – С. 282-283.

[3] Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. – 108 с.

[4] Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. –35 с.

[5] Быганова А.Е. Прагмалингвистическии аспект категории социального статуса в немецкоязычном тексте. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 14 с

[6] Быганова А.Е. Прагмалингвистическии аспект категории социального статуса в немецкоязычном тексте. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 14 с

[7] Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. – 109 с.

[8] Саушева Е.В. Образ социального статуса коммуниканта в диалоговом дискурсе (на материале английского и русского языков). Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 24 с.

kontsentratsion lagerlardagi mahbuslar ham ismlaridan mahrum qilinganlar, ularning qo‘liga ism o‘rniga raqam tatuirovka qilingan. Ushbu tatuirovkalar u haqidagi ayrim ma’lumotlardan darak bergan. Yevropada jinoyatchilar orasida tatuirovka nafaqat tananing o‘ziga xos bezaklari, balki inson mavqeyining ko‘rsatkichidir. Jinoiy jargonlarning tushuntirishicha, barmoqlardagi tatuirovka qilingan halqalar nafaqat sudlanganlik soni (bitta halqa – bitta sudlanganlik), balki u qaysi koloniyada jazoni o‘taganligi, qanday jazoni o‘taganligi, jazoni qanday rejimda o‘tagani, tatuirovka egasi jinoiy muhitda qanday mavqeda ekanligi haqida ma’lumot olish mumkin bo‘lgan. Xitoyda kiyimning rangi maqom iyerarxiyasidagi o‘rinni anglatadi: imperatorning kiyimlari sariq, uning oila a’zolarining kiyimlari och sariq, yuqori amaldorlarning kiyimlari qizil, quyi mansabdorlar ko‘k kiyim kiygan, eng quyi mansabdor shaxslar qora kiyingan. Mashina, shaxsning holatining ko‘rsatkichi sifatida G‘arb sivilizatsiyasi sharoitida – sarmoya belgisiga aylandi, jamiyaatda muvaffaqiyatga erishgan, moliyaviy jihati yetarli bo‘lgan shifokor yoki advokat o‘z obro‘sini isbotlash uchun qimmatbaho mashinaga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan. Bundan tashqari ijtimoiy maqomni boshqa belgilar ham anglatib turgan.

Arxeologlarning fikriga ko‘ra, Qadimgi Mesopotamiyada hukmron tabaqa vakillari – podshohlar va jangchilar xudolar kabi kiyimda, qullar, asirlar va hunarmandlar odatda yalang‘och holda tasvirlangan. Shu bilan birga, xudolar va shohlar to‘liq kiyingan va yuqori tabaqaning jangchilari esa faqat ko‘kragigachaa kiyingan holda tasvirlangan[1]. Shaxsni maqomidan mahrum qilish u uchun har doim og‘ir jazo hisoblangan: o‘rta asrlarda cherkovdan haydash, keyinchalik esa partiyadan chiqarish, to‘satdan ishni yo‘qotish kabilar fikrimizning dalili bo‘la oladi. Bu shaxsga ta’sir qilishning eng yuqori darajalaridan biri hisoblanib, insonni o‘z joniga qasd qilishigacha borishiga sabab bo‘lgan. Sotsiopsixologlar tomonidan aniqlangan o‘z joniga qasd qilish turlari shuni ko‘rsatadiki, inson va uning yaqin atrofi (u uchun aziz bo‘lganlar) o‘rtasidagi tushunmovchiliklar, bundan tashqari shaxs birdaniga o‘zining maqom xususiyatlarini yo‘qotishi hisoblanadi, masalan, ishini yo‘qotishi[2]. 2. Insonlar bilan munosabat(aloqa)lar ko‘rsatkichi. Insonning ijtimoiy maqomi ko‘p jihatdan uning boshqa odamlar bilan munosabat – aloqalarida namoyon bo‘ladi. Ushbu aloqalar bevosita va bilvosita o‘lchovga ega. Bevosita aloqalar (munosabatlar) paralingvistik juhat hisoblanib, ular proksemikada ko‘rib chiqiladi va muloqot ishtirokchilari orasidagi masofada ifodalanadi. Masofaning yaqin, shaxsiy, ijtimoiy, jamoat masofasi singari turlari aniqlangan bo‘lib, shulardan ijtimoiy masofa insonning maqom xususiyatlarini faollashtiradi. Ushbu masofa turlari E.Xoll tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan.

Qayd etilishicha, muloqot ishtirokchilari orasidagi masofa ko‘p jihatdan mamlakat yoki mintaqaning milliy va madaniy xususiyatlariga bog‘liq. Jumladan, lotin amerikaliklar bir-birlari bilan yaqin masofada gaplashmasalar, o‘zlarini noqulay his qilishadi. Bu AQSh fuqarolari bilan muloqot qilishda ba’zi bir tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi, amerikaliklar uchun samimiy masofa do‘stona suhbat bilan bog‘liq emas. Shuning uchun Shimoliy amerikaliklar Lotin amerikaliklar ular bilan gaplashmoqchi bo‘lganda ulardan uzoqlashadilar. Natijada lotin amerikaliklar uchun AQSh fuqarolari sovuqqon odamlar bo‘lib tuyuladi. Qayd etilishicha, muloqot ishtirokchilari orasidagi masofa ko‘p jihatdan mamlakat yoki mintaqaning milliy-madaniy jihatlariga bog‘liq.

Muloqot masofalari E. Xoffmanga ko‘ra ijtimoiy hudud tushunchasi bilan bog‘liq. Shuningdek, odamning shaxsiy masofaga to‘g‘ri keladigan shaxsiy maydoni mavjud va bu makonga begonalarning kirib kelishi dushmanlik munosabatini keltirib chiqaradi. Odamlar gavjum transport vositalarida yurishganda, ramziy ma’noda o‘zlarining shaxsiy makonlarini oyoqlarini kerib o‘tirish yoki uzoqqa qarash orqali himoya qiladilar. O‘zining yuqori mavqeyidan xabardor bo‘lgan odamlar o‘zlarining bo‘ysunuvchi mavqeyini biladigan odamlarga qaraganda ko‘proq joy egallaydilar. Psixologlar fikricha, bo‘ysunuvchilar ko‘pincha boshlarini yelkalariga tortadilar, yurish paytida egilibroq harakat qiladilar va hokazo.

G‘arbiy Yevropa madaniyatida an’anaviy ravishda erkaklarga xos deb hisoblangan ba’zi jihatlar ko‘proq ichki erkinlik va ko‘proq o‘rin uchun da’vo bilan bog‘liq. Ovoz balandligi darajasi ham aloqa masofasining turiga mos keladi. Noo‘rin vaziyatda baland ovozli nutq aloqani boshqa masofaviy rejaga o‘tkazishga urinish sifatida qabul qilinadi, bunday holat boshqa odamlarning e’tiborini jalb qilishni maqsad qilish uchun deb tushuniladi. Gohida samimiy yoki do‘stona muloqotni ijtimoiy muloqot toifasiga o‘tkazish holatlari ham uchrab turadi. Bu odamning holatiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan taqdirda tez-

[1] Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. – Москва., 1978. – С.220

[2] Parsons T. The Structure of Social Action. Study in Social Theory with Special Reference to a Group of Recent European Writers. - Glencoe: The Free Press,1949. – 817 p.

tez sodir bo‘ladi. Muloqotning bunday o‘zgarishining odatdagi holati sifatida boshqa talabalar va o‘quvchilar yoki o‘qituvchining e’tiborini jalb qilish uchun test paytida bir talabaning ikkinchisiga baland ovozda aytilgan so‘zdir. Aloqa masofalari insonning ijtimoiy maqomining doimiy ko‘rsatkichlaridan birini tashkil qiladi va u turli paralingvistik ko‘rinishlarda, balki tilda ham kuzatilishi mumkin. Demak, juda yaqin odamlar o‘rtasida ishlatiladigan shaxsiy kod maxsus murojaatlar, burilishlar, konnotatsiyalar bilan tavsiflanadi. Shaxslar bilan aloqaga yana to‘xtaladigan bo‘lsak, notanishlarga murojaatlar ko‘p holatlarda va ko‘p madaniaytlarda uzr so‘rash bilan boshlanadi: “kechirasiz”,”uzr” singari. Bu so‘zlar “begona hudud”ga “o‘ziga xos bosqin”ni “yumshatish” uchun qo‘llaniladi.

Murojjat qilinganda ham shaxsning ijtimoiy maqomiga mos ravishda uning turi tanlanadi. Bu haqida X.Quziyeva o‘zining “Tarixiy romanlarning sotsiolingvistik tadqiqi” nomli tadqiqot ishida aytib o‘tgan[1]. 3. Nutq ko‘rsatkichi. Nutq insonning ijtimoiy maqomining eng muhim xususiyatidir. Ijtimoiy maqomning nutq ko‘rsatkichi talaffuzda, so‘zlarni tanlashda va me’yoriy grammatika qoidalariga rioya qilishda namoyon bo‘ladi. Nutqning ijtimoiy ko‘rsatkichi muammosi sotsiolingvistikada chuqur ishlab chiqilgan. Inson umri davomida o‘z nutqida jamiyatning axloqiy-ijtimoiy qoidalariga bo‘ysunadi. U nutqida o‘zi (so‘zlovchi), tinglovchi va o‘zganing jamiyatda tutgan o‘rni, ya’ni ijtimoiy holatini (kasbi, moddiy holati, jinsi, yoshi) anglagan holda muloqotga kirishadi. Nutq ishtirokchilari deganda shaxsiy muloqotda so‘zlovchi va tinglovchi, agar suhbat telefonda bo‘lsa, nutqni jo‘natuvchi va oluvchi, agar so‘zlovchi katta auditoriya bilan gaplashsa, murojaat qiluvchi va omma tushuniladi. Insonning nutqi orqali uning qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligi bilish mumkin. Nutq muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy holati haqida ma’lumot beruvchi muhim vositadir. Masalan, nutq egasi tomonidan tanlangan o‘ziga xos murojaat birliklari, nutqiy etiket shakllari uning ijtimoiy holati haqida axborot tashiy oladi. Ayniqsa, o‘zbek muloqot madaniyatida jumla tuzishda nutq ishtirokchilarining jamiyat hayotidagi o‘rniga katta e’tibor qaratiladi[2]. V.I. Karasik muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy holati hisobga olinmasa, muloqot sun’iy va provakatsion xarakter kasb etishini ta’kidlaydi[3]. Muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchining yashash tarzi, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi, jinsi, yoshi singari omillar muloqot jarayoniga ta’sir etadi. Shuningdek, insonlarning tildan qanday foydalanishiga qarab, ularning jamiyatdagi mavqeyini ham bilsa bo‘ladi. Manbalarda erkaklarda baland ovoz xushmuomalalik bilan bog‘liq, hukmronlik qilish istagi va tajovuzkorlik va past ovoz – o‘ziga ishonch bilan chuqur ovoz depressiyadan aziyat chekadigan odamlarga xos ekanligi qayd etilgan.

Ovoz balandligi ham katta ahamiyatga ega. Yevropa va AQShda ayollarning baland ovozi ayollik va xushmuomalalik bilan, past ovoz esa uning ijtimoiy maqomiga bog‘liq. Sharqda esa ayollarning, odatda, muloyim ovozga egaligi ko‘proq madh etilgan. Shunday holatlar bo‘ladiki, tashqi ko‘rinish bilan ovo muvodiq kelmay qoladi, tashqi ko ‘rinishiga qarab uning shunday ovozga egaligi hayratlanarli tuyuladi. Yuqori lavozimda ishlovchilar ohangida qat’iylik, buyurish, amr aks egtsa, unga bo‘ysunuvchilar nutqida qat’iyatsizlik, itoat ohanglari aks etadi. Sukunat ham kommunikativ ma’noga ega. Kommunikativ jihatdan mazmunli sukunatning ikkita asosiy vazifasi holatni ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qiladi: gapirish uchun sukunat va gapirish o‘rniga sukunat [4].

Gapirish uchun sukunat suhbatning tabiatidan, gapirish va tinglashning almashinishidan kelib chiqadi. Hukmronlik qilishga intilayotgan odam suhbatdoshning gapini to‘xtatadi, doim gapirishga intiladi. Sukunat esa zaiflikning belgisiga aylanadi. Gapirish o‘rniga sukut saqlash noaniq bo‘lib, V.V.Bogdanovning fikricha, gapirishni istamaslik, qat’iyatsizlik, xushmuomalalik tamoyiliga rioya qilish va hokazolarni anglatadi. Gapirishni istamaslik pastroq maqomli guruh a’zosi bilan muloqot qilishni istamaslikning ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin. Haddan tashqari to‘g‘ri talaffuz, bizningcha, jurnalistlar nutqiga xosdir. Erkak va ayollar nutqidagi farqlar esa tilshunoslikda tadqiq etilgan masala hisoblanadi. Aniqlanishicha, ayollar savol berishga, suhbatni davom ettirishga, suhbatdosh bilan birdamlik va rozilik bildirishga moyil ekanliklari aniqlangan. Erkaklar esa ko‘pincha suhbatdoshlarning so‘zlarini to‘xtatadilar, sheriklarining so‘zlariga qo‘shilmaslikka moyildirlar, suhbatning boshqa ishtirokchilarining sharhlariga e’tibor bermaslik yoki

[1] Yo‘ldasheva X.Q. O‘zbek tarixiy romanlarining sotsiolingvistik tadqiqi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss – Toshkent, 2017. –106b

[2] Davlatova R.H. O ‘zbek tilining deyktik birliklari. Filol. fan. doktori (Dsc) ... diss – Toshkent, 2020. – 96b.

[3] Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. –4с.

[4] Богданов В.В. Молчание как нулевой речевой акт и его роль в вербальной коммуникации // Языковое общение и его единицы: Сб.науч.тр. – Калинин: Калинин, 1986. - С. 12-18.

ishtiyoqsiz munosabatda bo‘lish, suhbat mavzusini yanada qattiqroq nazorat qilish, shu jumladan, mavzuni ishlab chiqish va almashtirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri fikr bildirishga va aniq ma’lumot berishga moyil.

Ijtimoiy maqomning nutq ko‘rsatkichi, asosan, ma’lumotli va o‘qimagan odamlarning nutqini tavsiflaydi. Adabiyotlarda o‘qimishli va o‘qimagan, o‘rta ma’lumotli yoki ma’lumoti yo‘q odamlarning qarama-qarshi nutqining xususiyatlari tasvirlangan o‘rinlar uchraydi. Insonning ijtimoiy maqomining nutqiy ko‘rsatkichi tilni bilish darajasida ham uchraydi. Dunyo aholisining deyarli yarmi ikki tilli, ya’ni. bir nechta tillarda gapiradi. Ona tilini ham, boshqa tilni ham bilish darajasi ta’lim olish va nufuzli ishga kirish imkoniyatiga ta’sir qiladi va ma’lum darajada insonning o‘zini o‘zi qadrlashini belgilaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy maqomi balandroq inson huzurida undan pastroq mavqega ega bo‘lgan inson, albatta, hayajonlanadi, hayajonlanishi natijasida esa g‘o‘ldiradilar, duduqlanadilar, bu holat so‘zlash mahorati yetarlicha odam minbarga chiqqanda ham odamlar oldida shunday holatga tushishi mumkin. Lekin maqomi yuqori inson qo‘l ostidagilar bilan muloqot qilishda ravon gapirish kerak. Nutq kompetensiyasining yetishmasligi past ijtimoiy maqomning ko‘rsatkichi sifatida ko ‘zga tashlanadi.

Shaxsning ijtimoiy maqomi uyuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, sotsiolingvistik, pragmalingvistik hamda semantik kategoriyadir. Sotsiolingvistika bevosita inson va jamiyat o‘rtasidagi aloqani o‘rganadigan fan ekan, ijtimoiyaqom tushunchasi ham shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy o‘rni nuqtayi nazaridan bahoaydi. Biz ushbu fikrlar orqali uning sotsiolingvistikadagi o‘rni, xususiyatlari, namoyon bo‘lishi haqida fikr bildirib o‘tdik.

Rezyume. Ushbu maqolada ijtimoiy maqom tushunchasining sotsiolingvistik xususiyati haqida fikr yuritildi. Ijtimoiy maqom sotsilogik va sotsiolingvistik tushuncha sifatida ajratib ko‘rsatildi. Shuningdek, ijtimoiy maqomning ko‘rsatkichlari va uni baholash haqida ma’lumotlar berildi, ijtimoiy maqomning nutqda namoyon bo‘lishi, turli millat vakillarining o‘z ijtimoiy maqomiga xos xatti-harakatlari va nutqidagi farqlar aytib o‘tildi.

Resume. This article discussed the sociolinguistic nature of the concept of social status. Social status was distinguished as a sociological and sociolinguistic concept. Also, information was given about the indicators of social status and its evaluation, the manifestation of social status in speech, the behavior of representatives of different nationalities specific to their social status and the differences in their speech were mentioned.

Резюме. В данной статье рассматривается социолингвистическая природа понятия социального статуса. Социальный статус выделялся как социологическое и социолингвистическое понятие. Также были даны сведения о показателях социального статуса и его оценке, проявлении социального статуса в речи, отмечено поведение представителей разных национальностей, специфичное для их социального статуса и различия в их речи.